

Uzbekistan Airways aviaqatnovi haqida rasmiy xabar

2024 16 August

Uzbekistan Airways aviakompaniyasining 2024-yil 15-avgust kuni HY553 Toshkent – Kuala-Lumpur yoʻnalishi boʻyicha amalga oshirilgan aviaqatnovida yoʻlovchilarning qimmatbaho buyumlarini oʻgʻirlashga urinish sodir boʻldi. Aviaqatnov Kuala-Lumpurga yetib kelgach, havo kemasi ekipaji tomonidan politsiya xizmati chaqirtirildi. Bortdagi yoʻlovchilarga huquqni muhofaza qilish organlarining chaqirtirilgani eʼlon qilindi. Ekipaj huquqni muhofaza qilish organlari vakillari bilan birgalikda havo kemasini koʻzdan kechirish boʻyicha tegishli protseduralarni amalga oshirdi, ushbu jarayonda esa barcha buyumlar topildi. Gumon qilingan chet el fuqarolari shu joyning oʻzida ushlangan va vaziyatga oydinlik kiritish maqsadida Malayziya poytaxti politsiya xizmatiga olib ketilgan.

Afsuski, shunga oʻxshash holatlar koʻplab aviakompaniyalarning havo kemalarida sodir boʻladi. Uzbekistan Airways bunday hodisalarga qarshi qattiq kurashni qoʻllab-quvvatlaydi va ushbu yoʻnalishda huquqni muhofaza qilish organlari va belgilangan mamlakatlarning migratsiya xizmatlari bilan birgalikda ish olib bormoqda. Yoʻlovchilarni profayling qilish amaliyoti parvozdan oldin aeroportlarda amalga oshiriladi. Shubhali shaxslar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar, shu jumladan, parvoz paytida ularni kuzatish uchun ekipajga taqdim etiladi.

Yoʻlovchilarimizga yana bir bor eslatib oʻtmoqchimizki, aviakompaniyalar yoʻlovchilarning qoʻl yuki uchun javobgar emas. Qimmatbaho buyumlar va pul mablagʻlari har doim oʻzingizda boʻlishi kerak. Bundan tashqari, buyumlaringizni havo kemasi saloniga qatʼiy ravishda oʻrindigʻingiz tepasida yoki oldingizdagi oʻrindiq ostida joylashtirish tavsiya etiladi.